

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>L.T.Galimullina</b>	Internal form of phraseological units with the components of precious stones and metals in the english language .....	1213
<b>A.O.Oxunov</b>	Ingliz va O'zbek tillarida undov so'zlar (interjection)ning ifodalanishi .....	1217
<b>M.U.Mamadjanova</b>	Linguocultural features of the epithets .....	1221
<b>M.U.Mamadjanova</b>	Tilshunoslikda epitetning lingvistik tabiati haqidagi turli qarashlar .....	1224
<b>M.M.Umaralieva</b>	The significant role of lingua-psychological, pedagogy-didactic, and methodological factors in the planning and implementation of self-directed programs .....	1227
<b>Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov</b>	Bit-dars texnologiyasi asosida ijodiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi tahlili .....	1232
<b>Sh.Z.Xolmatov</b>	So'z urg'usining nazariy tavsifi va ahamiyati qiyosiy aspektida .....	1236
<b>M.M.Umaralieva</b>	A proficient approach to self-directed learning .....	1241
<b>Sh.F.Latipov</b>	Grammatical lacunas as markers of cultural and linguistic identity .....	1246
<b>Sh.F.Latipov</b>	Lingvistik lakunani aniqlash haqida ayrim tushunchalar .....	1249
<b>A.A.Qosimov</b>	Linguo-pragmatic typology of metaphors: the intersection of language and pragmatics .....	1252
<b>A.A.Qosimov</b>	A linguo-cultural approach to metaphor classification: unveiling cultural concepts through figurative language .....	1258
<b>M.G'.Zaylobidinova</b>	Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish .....	1264
<b>Д.Ш.Ибрагимова</b>	Сущность и структура иноязычной коммуникативной компетенции будущих учителей .....	1268
<b>Д.Ш.Ибрагимова</b>	Эффективность использования театрализации в обучении студентов устойчивым базовым английским фразам для чрезвычайных ситуаций .....	1272
<b>Д.Ш.Ибрагимова, Й.Х.Музаффархонов</b>	Использование театрализации в процессе формирования речевых навыков у студентов .....	1278
<b>M.N.Abdulimova</b>	Theory of cognitive and conceptual metaphors .....	1282
<b>M.N.Abdulimova</b>	Analysis of metaphors used in political texts .....	1286
<b>S.O'.Shermamatova</b>	Analyses of J.D.Salinger's works .....	1291
<b>X.Zikiryoxonovna</b>	Falsafiy-psixologik romanda tush motivi .....	1295
<b>X.Z.Umarova</b>	Maktublar – qahramon qalb oynasi .....	1298
<b>Sh.A.Igamberdiyeva, A.G.Abdukadirov</b>	Significance of motivation in developing students' creative cooperation skills .....	1301
<b>S.S.Usmanova</b>	Jadidchilik va adabiy muhit xususida .....	1304
<b>V.Abdurakhmanov</b>	Classification and description of the main alternative issues in social life .....	1307
<b>R.M.Turdimatova</b>	The intricacies of irony: types and examples .....	1311





УО'К: 297.17

JADIDCHILIK VA ADABIY MUHIT XUSUSIDA  
ДЖАДИДИЗМ И ЛИТЕРАТУРНАЯ СРЕДА  
JADIDISM AND THE LITERARY ENVIRONMENT

**Usmanova Sevara Sultanovna**

Farg'ona davlat universiteti, amaliy ingliz tili kafedrası dotsenti, PhD

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada milliy uyg'onish davridagi adabiy muhit, adabiyotning shakllanishida ijtimoiy islohotlarning o'rni, adabiyotning shakllanishida obyektiv va subyektiv jarayonlarning mavjudligini tadqiq etiladi.

**Аннотация**

В данной статье исследуется литературная среда национального возрождения, роль социальных реформ в становлении литературы, наличие объективных и субъективных процессов в становлении литературы.

**Abstrakt**

This article explores the literary environment of the national renaissance, the role of social reform in the formation of literature, the existence of objective and subjective processes in the formation of literature.

**Tayanch so'z va iboralar:** ma'rifatparvarlik, ong, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik realizmi, jadidchilik.

**Ключевые слова:** просвещение, сознание, национальное пробуждение, реализм просвещения, джадидизм.

**Key words:** enlightenment, consciousness, national awakening, enlightenment realism, jadidism.

**KIRISH**

Milliy uyg'onish davri adabiyotining taraqqiy etishida jadid adabiyotining o'ziga xos o'rni mavjud. O'rta osiyoda feodal tuzumga qarshi paydo bo'lgan jadidchilik adabiyoti islohotlar natijasida vujudga kelgan ijtimoiy xarakatchilik asosi sanaladi. Jadid adabiyoti mumtoz adabiyotdan tubdan farqlanuvchi o'z mazmun va mohiyatiga ega bo'lgan adabiyot sanaladi. Mumtoz adabiyotda dunyoviylikka nisbatan diniy mavzu va mazmun jihatdan yuksakroq mavqega ega bo'lsa, jadid adabiyotda dunyoviylik va diniylik jihatlarining o'zaro tengligini ko'ramiz. Bu borada Rahim Gulshan quyidagi fikrlarni bildiradi: "Jadid adabiyotini tarixiy sharoit yaratdi va shakllantirdi. U mumtoz adabiyot bilan yangi adabiyot o'rtasidagi ko'prikdir. Bu adabiyot milliy uyg'onish davrining mahsulidir" [10]. Shu o'rnida milliy uyg'onish davri adabiyoti qachon vujudga kelgan degan savol tug'iladi? Bu borada bir guruh adabiyotshunoslarimiz turlicha fikr va mulohazalar ega.

Umarali Normatov boshchiligidagi bir guruh adabiyotshunos olimlar milliy uyg'onish davri adabiyoti 1905 yildan boshlanganligini, ayrim olimlar esa unga Turkistonda jadidchilik xarakatining boshlanishi, ya'ni XIX asr 90 yillarida tamal toshi qo'yilganligini ta'kidlaydilar. Begali Qosimov rahbarligidagi yana bir guruh adabiyotshunoslar milliy uyg'onish adabiyotini vujudga kelish davrini rus istilochilarining Toshkentni bosib olish yillari (1865-1929) bilan bog'liqlikda deb biladi. Boymirza Xayyitning "Turkistonda jadidchilik va uning tugatilishi" deb nomlangan maqolasida Turkistondagi jadidchilik xarakati o'z adabiyotini yaratishda ham orqada qolmaganligi jadid adabiyoti bilan Turkiston adabiyoti tarixining yangi davri boshlanganligini ta'kidlaydi [2]. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda Turkistonda maorif, madaniyat, ma'rifiy jamiyatlarda, matbuot va jurnalistika, san'at rivojlanishi bilan bir qatorda jadid adabiyoti ham rivojlanganligini e'tirof etish lozim.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**



## TILSHUNOSLIK

Jadid adabiyotida G'arb adabiyotidagi bir qator janrlar roman, esse, drama, hikoya, hamda barmoq vazniga asoslangan poetika va badiiy janrlar vujudga kelganligini ta'kidlash lozim. Jadid adabiyoti yangi zamonning, ma'rifatparvarlik davrining samarasidir. Bu davr adabiyoti uyg'onish, hamda eski ijtimoiy targ'ibotlar o'rniga yangisini o'rnatishga intilish davrining adabiyotidir. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov "Jadid adabiyoti 20 yillarda o'z rivojining ancha barkamol darajasiga yetdi. Bu adabiyot- ko'p janrli, mazmunan yangilangan, umuminsoniy qadriyatlarni tarannum etuvchi, ayniqsa, erk va ozodlik, adolat va vijdoniylik g'oyalari o'lg'a suruvchi adabiyot bo'ldi" deb e'tirof etdi [6]. Jadidshunos olim B.Qosimov esa " Bu adabiyotning ilk namunalari badiiyatiga ko'ra u qadar yuksak emas, g'oyalar yaydoq beriladi. Shiorbozlik va chaqiriqlar ko'zga tashlanadi " deydi. Chunki har bir davr adabiyoti, avvalo ana shu davrning ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy xususiyatlari ta'sirida paydo bo'ladi.

Akademik A.N.Samoylovich o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti borasida Turkistondagi yangi adabiyotning markazi deb Samarqandni, yosh adiblarning bosh ilhomchisi deb esa samarqanlik muftiy Behbudiyini e'tirof etadi [1] degan fikrlarni bildirgan.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Turkistonda milliy uyg'onish davri adabiyotining serqirra ijodkorlari, olimu fuzalolari: M.Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Avloniy, Vasliy Samarqandiy, Va'dud Mahmud. Hamza, Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, A.Qodiriy kabi ziyokorlarning jadid adabiyotining ravnaq topishida hissalarini beqiyosdir. Ular yozgan asarlarda mazlum xalq hayoti o'z ifodasini topgan. Jadid adabiyotini ravnaq topishida adabiy muhitning ta'siri juda kattadir. Adabiy muhit bu-muayyan joyda yashab ijod etgan yirik shoir va adiblar ta'sirida yuzaga keladigan ijodiy muhitdir [2]. Jadid adabiyotida ham mana shu ijodiy muhitni yuzaga kelishida buyuk ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan bog'liqdir. Adabiy muhit boshqa joylardagi ijodkorlarning o'ziga xos ijodiy metodi, badiiy fikrlash doirasi kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon, Andijon kabi adabiy muhit mavjud bo'lib, ularning yetuk namoyondalari yaratgan o'lmas asarlar o'zbek adabiyotining nodir durdonalari hisoblanadi [3].

Buxoro adabiy muhitini shakllanishida Fitratni, Samarqand adabiy muhitini shakllanishida Behbudiyini, Toshkent adabiy muhitida Munavvar qorining, Xiva adabiy muhitida Feruz, Farg'ona adabiy muhitida esa Cho'lponning o'rni beqiyosdir.

Har bir adabiy muxitda o'ziga xos, yangi qiyofada jadid adabiyotining eng nodir asarlari dunyoga kelgan. Milliy uyg'onish davri adabiyotida adabiy muxitni shakllanishiga Ismoilbey Gasprialining o'rni beqiyosdir, chunki deyarli barcha ijodkorlar undan adabiy ta'sirlangan va o'ziga ustoz deb bilishgan.

Samarqand adabiy muhitining asoschisi, ma'rifatchi, ziyokor shaxs—M. Behbudiydir. Uning ijodida jadidchilik adabiyotida dramaturgiyaga asos solgan marifatchi sifatida ahamiyatli. Professor Naim Karimov "Padarkush" dramasi yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan bir asar sifatida baholadi [4]. Behbudiy inson qalbiga, eng nozik kechinmalariga, ruhiyatiga sahna orqali kirish mumkinligini anglab yetadi. U "Padarkush" deb nomlangan dramasi ilmsizlik, ma'rifatsizlikni, johillikning oqibatlarini insonlarga teatr orqali uqtirmoqchi bo'ladi. 1913 yilda ilk marotaba manashu asar sahna yuzini ko'rgan asar ana shu davr kishilari ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Naim Karimov "Padarkush" dramasi haqida teatr bu adabiyot ekanini, spetakl esa bu sahnada namoyish etiladigan asar ekanini tushunib yetgan edilar" [9] deydi.

Buxoro adabiy muhitining shakllanishida Sharq tarixini, Turkiston tarixini bilgan Fitratning o'rni beqiyosdir. U Sharq bilan bog'liq barcha narsalarga qiziqqan uni mukammal o'rganishga xarakteristik qilgan. U ko'hna Sharq falsafasidan ilxomlanib "Munozara", "Bayonoti sayyohi hindi" va "Oila" nomli asarlarini yaratdi. Ushbu asarlarni tub mohiyati inson ezgu say harakati tufayli jamiyat ravnaqiga yetishish mumkinligini yoritib bergan. Professor Dilmurod Qur'onov Fitratning "Munozara" asari haqida publitsistik xarakterdagi asar bo'lgani va bahs munozara shaklida qurilgani bois unda tarixni bugungi hikoyasi bir qadar konkretlik kasb etganligiga e'tiborni qaratadi [7]. Shu bilan birga Fitrat ijodining mohiyati xalqning qalb ko'zini ochishga, mehnat, yaratish, o'qish kurashga da'vatda namoyon bo'ladi. Tarixga murojatni Fitratni o'ziga ustoz deb bilgan ma'rifatparvar ijodkor Farg'ona va Andijon adabiy muhitining asoschisi Cho'lpon ijodida ham ko'rinadi. U o'z ijodida o'tmishni madh etar ekan, xalqni og'ir kechinmalarini, yurtning parokanda bo'lganini millatni, chorasizliklarni qayg'u alam bilan madh etadi [8].



Naim Karimovning " Abdulla Qodiriy va Toshkent adabiy muhiti" nomli maqolasida keltirilishicha, Toshkentdagi adabiy-madaniy hayot XIX asr oxiri- XX asr boshlarida " Ko'kaldosh", "Beklar begi", "Baroqxon", Abul Qosim, Xo'ja Ahror madrasalarida, shuningdek choyxona, do'kon va xonadonlarda kechgan deyiladi [9]. A. Qodiriy ham mana shu adabiy muhitdan ta'sirlandi, nafas oldi va ijodining shakllanishida muayyan axamiyat kasb etdi.

Tabiiyki, har bir hududdagi ijtimoiy-tarixiy sharoit, asriy madaniy-adabiy an'analar, badiiy-estetik qarashlar darajasi jadid adabiy tafakkurining tug'ilishi va taraqqiyotiga muayyan ta'sir ko'rsatdi. Bu hol Xorazm adabiy muhitidagi o'ziga xos jihatlarda namoyon bo'ldi [10]. Xorazmda Turkiston o'lkasiga nisbatan yevropa madaniyati, adabiyot, ilm-ma'rifatdan ta'sirlanish, badiiy ijod, teatr, musiqa, san'at sohalari biroz sekinlik bilan rivojlandi. Xorazm adabiy muhiti namoyondalari Avaz, Mirzo, Niyoziy, Faqiriy, Mug'anniy, Devoniylar milliy uyg'onish davri Xorazm muhitini rivojlantirganlar. 20-30 yillar adabiy muhitida mavzular kengayishi, janr va uslublar rang-barangligi ham yuqoridagi ijodkorlar nomi bilan bog'liq [11].

### XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jadid adabiyotini hududlar kontekstida o'rganish, ijtimoiy-estetik jihatlarni, uning mohiyatini o'rganish, o'sha davr adabiy jarayoni haqidagi mavjud fikrlarni kengaytirishga imkon beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурашидов М. Танланган асарлар.-Т.: Маънавият, 2003.-Б. 216.
2. Боймирза Хайит. Туркистонда жадидчилик ва унинг тугатилиши. //http:kh-davron.uz/tag/boymirza-hayit.
3. Қосимов Б. Миллий уйғонишдаври ўзбек адабиёти. -Т.: Маънавият, 2004.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш.-Т.: Маънавият, 2002.-Б.162.
5. Қосимов Б. Қалблардан учмаган нур. //http:kh-davron.uz/tag/jadidlar-kutubxona.
6. Маҳмудхўжа Бехбудий. Ёшларга мурожаат.// Ойна.1914 йил, №41-Б.970-972- бетлар.
7. Шарафуддинов О.20-30 йилларда жадид адабиёти.//http:www.e-adabiyot.uz/kitoblar/maqolalar/263-jadid-adabiyoti.
8. Д. Қуроноф. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси.-Т.: Ўқитувчи,1997.
9. Наим Каримов. Абдулла Қодирий ва Ташкент Адабий муҳити.//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2013й. №43-44.
10. Odina, M., & Sultanovna, U. S. (2023). CONTENTS AND MEANINGS OF "UTOPIA" WRITTEN BY THOMAS MORE. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 961-962.
11. Раҳим Гулшан. Абдурауф Фитрат ва жадид адабиёти.//Фил.фан.ном... автореферат. Тошкент:1999.
12. Sultanovna, U. S., Markhabo, S., & Shakhriyor, K. (2022, December). SEMANTIC AND LINGUOCULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS WITH CONCEPT OF FRIENDSHIP. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 211-215).
13. Sultanovna, U. S., Latipov, S., & Gulbaxor, M. (2022, December). SO'Z URG'USINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FARQLASH VAZIFASINING QISQACHA TAVSIFI. In " *ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM* (pp. 216-219).
14. Zebo Saidjonova. Jadidchilik va Xorazm adabiy muhiti.//Sharq yulduzi. 2016 yil.№4